

TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
2-may
N:18
(66819)

ISSN - 2010-6092

KICHKINTOYLAR QUVONCHI

Shu kunlarda bilim maskanimiz kichkin-
toylarining quvunchi cheksiz. Boisi, maktab
hovlisida ular uchun bolalar maydonchasi
barpo etildi.

Maktabimiz rahbari Dilfuza Islomova-
ning sa'y-harakatlari bilan bu yerga ko'p-
lab arg'imchoqlar, sport anjomlari, o'rin-
diqlar o'rnatildi. Maydoncha atrofiga
rango-rang gullar, mevali va manzarali
daraxtlar ekildi.

— Tanaffusda maydonchaga chiqib,
do'stlarimiz bilan arg'imchoqlar uchaymiz,
gazeta va jurnallar o'qiyamiz, — deydi
2-«G» sinf o'quvchisi Dilbaroy Komiljonova
sevinchini ichiga sig'dirolmay. — Dam olish
kunlari esa uka va singillarimiz bilan kelib,
turli sport musobaqalari uyushtiryapmiz...

Aziza YO'LDOSHEVA,

Toshkent shahar, Mehtepa tumanidagi
228-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Shahlo

«Zulfiya» nomidagi
Davlat mukofoti sohibalari



Xorazmlik tengdoshingiz Shahlo Salayeva 2006-yili Fransiyada bo'lib o'tgan «Xalqaro bolalar teatri» festivalida maqom va xalq qo'shiqlari yo'nalishi bo'yicha ishtirok etganida bor-yo'g'i 13 yoshli qizaloq edi. San'atga bo'lgan mehr beg'ubor qalbi orzularga limmo-lim qizni Yrganch shahar san'at kollejiga yetakladi. Maqom va folklor qo'shiqchiligi yo'nalishi bo'yicha ustozlaridan puxta bilim olib, o'z ustida tinmay izlanayotgan Shahlo maqsad sari ildam odimlayapti.

O'tgan yili Andijon shahrida o'tkazilgan maqom va katta ashula ijrochilarining respublika ko'rik-tanlovida qatnashib, «Eng yosh ijrochi» nominatsiyasi sovrindori bo'ldi. «O'lan aytgali keldik» Respublika folklor festivalida ishtirok etib, Faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Xiva shahrida o'tkazilgan «Asrlar sadosi» festivalida ham faol qatnashib, ko'pchilikning tiliga tushdi.

Shu yili «Milliy tiklanish» Demokratik partiyasi Xorazm viloyati Kengashi tomonidan o'tkazilgan musiqiy ko'rik-tanloving «Eng mohir ijrochi» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib, Diplom bilan taqdirlandi.

Aslida mazkur san'at kollejining deyarli barcha o'quvchilari iqtidorli. «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakatining boshlang'ich tashkiloti faoli, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining bu yilgi sohibalari qatoridan munosib o'rinni olgan Shahlo Salayeva kabi intiluvchan qizlarimizni, saralarning sarasi, degimiz keldi.



Bolalar maydonchalarida




YAXSHI AMAL

1. HAR BIRI E'TIBORIMIZDA

Qo'limda bir dasta xat:

Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi 1-maktabdan Jasurbek Safarov, shu viloyatning Mirzaobod tumanidagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi Shahnoza Shamsiddinova, Jizzax viloyati Forish tumanidagi 14-maktab o'quvchisi Qobilbek Savurboyev, Farg'ona shahridagi 5-maktab o'quvchisi Dilyora Rahmonova, Toshkent shahar, Sergeli tumanidan Dilshod Nuriddinov, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani, Chorrabot qishlog'idagi 19-maktab o'quvchisi Laylo Hasanova, Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 1-son IDU maktabi o'quvchilari she'r va hikoyalari yo'llashgan. Ular bizning

Shahrimizda o'tadigan «Barkamol avlod» sport musobaqalarida xushkayfiyat va ochiq chehra bilan barchangizni kutib qolamiz.



Menga xat keldi

Siz uchun bugun nima muhim? O'qish, o'rganish, to'g'ri fikrlash, yoshlikdan sog'likni mustahkamlash, sport bilan muntazam shug'ullanish, yurtini sevish, vaziyatga baho berishni o'rganish, ustozga, katta-kichikka hurmat – eng to'g'ri yo'l shu emasmi? Barchamiz buyuk insonlarga havas qilamiz. Ularning bari to'g'ri yashashga intilishgan va o'zlarining bu dunyo nima uchun yashayotganlarining mohiyatini teran ang-laganlar.

Ma'naviy jasorat, degan ibora bor.

Bunga kengroq va yuksakroq ma'noda qaraydigan bo'lsak, Yurtboshimiz aytdanlaridek, XX asrda millatimizning

KISHIGA ODAT BO'LG'AY

muxlislar, ijodga intilayotgan bolalar va o'smirlar. Xatlaringizni o'qib, hech birini e'tiborsiz qoldirmaslikka intilamiz. Ammo hali bu mashqlar shunchaki havas, intilish, orzu, yurakning ilk tuyg'ulari, xolos. Lekin sira tushkunlikka tushmang, hech kim olim yoki shoir bo'lib dunyoga kelmaydi: maqsadingiz qat'iy, ishonchingiz yuksak bo'lsa, hamma orzularingizga erishishingiz mumkin, faqat ko'p bor takrorlayotganimizdek, ko'proq o'qish, ko'proq mashq qilishdan erinmasligingiz zarur.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz shunday deganlar:

Kimki bir shiddat aro sabru tahammul ayladi, Baxt aning neshini no'shu xorini gul ayladi.

Darhaqiqat, shiddat bilan orzu yo'lga kirib, mehnat qilgan insonning xor-u xasi ham gulga aylanadi.

Xullas, siz yo'llayotgan har bir noma e'tiborimizda: xatlar bo'limidagi qizlarimiz ularni ro'yxatga olib, bo'limlarga tarqatishadi. Yuqoridagi maktublar ham shunchaki qolib ketmaydi, ulardan kerakli o'rinlarda foydalanamiz, faqat yana bir tavsiya shuki, bizga yo'llayotgan she'r, hikoya, xabar, lavha va maqolalariningizni ustozlaringiz, ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilaringiz nazaridan o'tkazib oling. Ular sizga maslahatlar berib, ijodingizning puxtaroq bo'lishiga zamin yaratishlarini unutmang!

2. AHIL SINFDOSHLAR

Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida tahsil olayotgan bir guruh o'quvchilarning xati bizni bee'tibor qoldirmadi:

«Qadrlı tahririyat!»

Biz sevimli gazetamizning har bir sonini qiziqish bilan o'qib boramiz. Sinfimizdagi kutubxonada «Tong yulduzi»ning taxlami mavjud. Undagi yangi-yangi ma'lumotlardan o'rinli foydalanamiz. Shu yil Alisher Navoiy bobomiz tug'ilgan kunda o'tkazilgan adabiy kechada foydalangan manbalarimiz olqishlarga sazovor bo'ldi.

Biz va'da berib aytamizki, bundan buyon ham faqat «a'lo» va «yaxshi» baholar bilan o'qishga harakat qilamiz.

3. CHINAKAM SHARAF EMASMI?

Sizlardan kelayotgan maktublar bizni mushohadaga undaydi. Siz – yetishib kelayotgan barkamol avlod haqli ravishda shavkatli Vatanimiz taraqqiyotining poydevori hisoblanasiz. Buni qarang, yelkangizda qanchalik katta vazifa bor. Ko'plab tengdoshlaringiz bugungi zamon, ozod yurt berayotgan imkoniyatlardan foydalanib, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab, o'z orzu istaklari tomon dadil qadamlar qo'ymoqdalar. Biz imkon darajasida ular haqida hikoya qilib boryapmiz. O'tgan davr mobaynida har bir viloyat bolalar va o'smirlari hayotidan hikoya qiluvchi «Maxsus sonlar»ni tayyorlab, e'tiboringizga havola etdik. Kuni-kecha gazetamizning bir sonini Bolalar sportiga bag'ishladik. Uni tayyorlashda siz yaxshi bilgan faol jurnalist opalaringiz – Feruza Jalilova, Ma'mura Madrahimovalar tashabbus ko'rsatdilar. Ularga tashakkur deymiz!

Fursatdan foydalanib sizlarga aytadigan ikki og'iz so'zimiz ham bor: ma'lumki, biz tarixan samimiy, tanti, mehmondo'st, bag'rikeng ajdodlarning avlodlarimiz. Istaymizmi-yo'qmi, mehmondo'stligimiz foyda, ishonuvchanligimiz esa pand berib qo'yishi mumkin. Ana shundan ogoh bo'ling, deymiz. Bugun dunyoda «ommaviy madaniyat» deb aytyuhannos solayotganlarning qanday g'arazgo'y maqsadlarni ko'zlayotganlarini anglashingiz zarur. Hech zamonda buzg'unchilik, giyohvandlik, pala-partish hayot kechirish oqlanmagan, balki ularga qarshi ayovsiz kurashilgan. Chunki har davrning o'z muammolari bo'ladi, lekin hech qachon odamzod ularni chetlab o'tmagan, aksincha, barcha ezgu kuchlar yomon illatlardan o'z farzandlarini, oilasini, mahallasini, yurtini ko'z qorachig'idek asragan. Hozir ham ana shunday jarayon kechmoqda. O'zingni asra, degan so'z zamirida, birinchi galda, o'z baxtingga zomin bo'lma, degan ma'no yotadi.

eng katta ma'naviy jasorati, albatta, mustaqilligimizning qo'lga kiritilishi bo'ldi. Necha-necha ulug'-ulug' insonlar bu kunlarni ko'rishni orzu qilib, o'tib ketganligini ham yaxshi bilasiz. Baxtimizki, shu munavvar kunlarning shohidi bo'lib turibmiz. Kundan-kunga chiroy ochayotgan qishloq, shaharlarimizni ko'rib, ko'z quvnaydi. Xorijdan kelayotganlarning «jannatmisol, go'zal, betakror, betimsol yurtigingiz bor» degan so'zlarini eshitib, bir emas, o'n quvonamiz. Shunday go'zal yurtga munosib farzand bo'lish har birimiz uchun chinakam sharaf emasmi?

Hademay mustaqilligimizning 20 yilligini keng tantana qilamiz. 20 yil – tarix uchun qisqa davr, ammo bu yillarda jonajon O'zbekistonimiz jahon uzra o'z nufuzini namoyish eta oldi. Bugun u har tomonlama rivojlanib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Unga qiziqish bilan qarayotganlarning son-sanog'i yo'q. Yana o'n-o'n besh yillardan so'ng, aziz o'quvchim, davr sizniki bo'ladi, bu yo'lda chinakam insoniy fazilatingizni namoyish etish pallasida bugungi olgan bilimingiz, tarbiyangiz qo'l kelishini niyat qilamiz.

Zero, Alisher Navoiy bobomiz aytdanlaridek, yaxshi amallar umr yo'lingizda sizga doimo esh bo'lsin:

Gar yaxshi amal kishiga odat bo'lg'ay, Umri bu amal birla ziyoda bo'lg'ay.

Sizlardan xatlar kutib qoluvchi «Tong yulduzi»

Umidni taniysizmi?

Mazkur yilimizning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yili deb e'lon qilinishi tadbirkorlarimiz uchun ayni muddao bo'ldi. Deyarli har kuni joylarda ular tomonidan amalga oshirilayotgan xayrli, ibratli ishlarga guvoh bo'layapmiz.

O'quvchi do'stim! Balki siz ham tadbirkor bo'lishni niyat qilyapsiz-u,





MEHRIMIZNI QOZONGAN

Bunday ta'rifga loyiq bo'lgan ta'lim muassasalari qatorida Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi 35-maktab ham bor.

Zamonaviy maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkillashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

U yerda ta'lim olayotgan o'quvchilar qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlar siri nimada? Ushbu savollarga 35-maktab misolida javob topishga harakat qildik.

DARGOH

– 2006-yilda Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi homiyligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umummilliy Davlat dasturi asosida Davlat ta'lim standartlariga to'la mos keladigan mazkur maktab binosi o'quvchilar ixtiyoriga topshirildi, – deydi maktab direktori N.Eshonqulov. – Maktabimiz 844 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, mebel va sport anjomlari, kompyuter, laboratoriya va musiqa asbob anjomlari bilan to'la ta'minlangan. 2008-yili homiylar yordamida 150 o'rinli Axborot resurs markazi hamda Yetakchi klaster maktab binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. 2009-2010-o'quv yili oxirida esa maktabimiz to'la ta'mirlandi. Ayni paytda muassasamizda 73 nafar o'qituvchi bo'lib, ular uzviylashtirilgan o'quv dasturi asosida 1135 nafar o'quvchiga bilim berib kelyaptir. Maktabimizni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish niyatida maktab hovlisida 2200 tup atirgul, 2000 tup manzarali va 500 tup mevali daraxt ko'chatlarini o'tqazdik.

O'quvchilarning muayyan bir fandan olingan bilimlarini mustahkamlashda fan to'garaklarining o'rmi beqiyos. Biologiya, kimyo, matematika, fizika, adabiyot, tarix kabi fan to'garaklari ana shunday faoliyat yuritadi. Shuningdek, uchta musiqa to'garagi ham faoliyat olib boradi. «Doirachilar» va «Dutorchilar» to'garagi a'zolari, «Folklor dastasi»ning yosh san'atkorlari folklor va milliy kuy va qo'shiqlarimizni ijro etish sirlarini o'rganishsa, futbol, qo'l to'pi, voleybol, shaxmat-shashka, stol tennis, yengil atletika, badiiy gimnastika, milliy kurash kabi sport to'garaklari yoshlarimizning sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilmoqda.

Barcha ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi bu bilim maskanida ham «Ustoz-shogird» maktabi faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktab o'quvchilarining yutuqlari ham salmoqli. 2007-yili «Mitti olimpiada»ning viloyat bosqichida

Adolat Boyqo'ziyeva muvaffaqiyatli ishtirok etgan bo'lsa, 2008-yili Munavvar Xurramova «Non aziz, ushug'i undan aziz» mavzusidagi insholar ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi. 2009-2010-o'quv yili davomida «Fan olimpiadasi»ning tuman bosqichida Shahzod Qudratov matematika fanidan, Nodira Yusupova ingliz tili fanidan, Nasiba Allamurodova fizika fanidan, Zebo Sattorova ona tili va adabiyot fanidan, Sanjar Tog'ayev kimyo fanidan tuman bosqichida yaxshi natija ko'rsatib, viloyat bosqichida ishtirok etishdi. Iqtidorli o'quvchilarimiz o'tgan va bu o'quv yili davomida o'tkazilgan bir qancha ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Jumladan, 7-sinf o'quvchilari Behzod Mirzayev, Sherzod Ahmedov «Yosh rassomlar», «Nuriston g'unchalari» guruhi a'zolari «Yosh maqomchilar», 9-sinf o'quvchilari Zebo Sattorova, Nodira Yusupovalar «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovining viloyat bosqichlarida ishtirok etishdi. Intiluvchan qizimiz Nodira Yusupova «Eng yaxshi kitobxon – 2009» ko'rik-tanlovida ham ishtirok etib respublika bosqichida oliy o'ringa sazovor bo'ldi.

Bu yilgi natijalar ham yomon emas.


Zukko o'quvchilardan 12 nafari «Bilimlar sinovi» tanlovining viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Ona tili va adabiyot fanidan 6-sinf o'quvchisi Abbas Salomov va 7-sinf o'quvchisi Vazira Nuriddinova tanlovining viloyat bosqichida g'olib chiqib, respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.

Qimirlagan qir oshar...

Xalqimizning ushbu iborasi zamirida katta ma'no yotadi. Shu ma'noda 35-maktab jamoasi ham mehnatu harakatlari bilan qirlardan oshmoqda. Zero, izlanish va harakatlar ortidan muvaffaqiyatga erishish zamonaviy maktablarning asosiy maqsadidir.

Bashorat OTAJONOVA



O'ZBEKISTON DURDONASI

Mustaqillik yillarida Amir Temur nomi xalqimizning faxru-g'ururiga aylandi. Vatanimizning millatimiz iftixoriga aylangan yuksak ordenlaridan biri Sohibqiron nomi bilan atalishi ham bejiz emas.

Bobomiz tavalludi kunlari arafasida Temuriylar tarixi muzeyiga borib, tarixiy eksponatlar haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'ldim. 1996-yil 18-oktabrda ishga tushgan bu muzeyda ikki mingdan ziyod eksponatlar saqlanar ekan. Bu eksponatlar xalqimizning qanchalik boy tarixga egaligidan dalolatdir.

Muzeyda eng qadimgi eksponatlardan bo'lgan Kushonlar davridagi yodgorliklar, bronza davriga oid topilmalar, shuningdek, sopol va bronzadan ishlangan buyumlar, matoga tushirilgan rasm va yozuvlar, turli xil tangalar, jangchilar sovuti hamda egar-jabduqlar saqlanadi.

Kotib Muhammad Solih ibn Abulkarimovning «Shariat ahkamlari», Abdurahmon Jomiyning «Kulliyot» asarlarining asl qo'lyozmasi ham topilmalar qatoridan joy olgan.

Muzeyga kirgan har bir tomoshabinning ko'zini qamashtiruvchi qandil «Zamrad» nomi bilan ataladi. Bu san'at asari Toshkent Mikond (hozirgi Oniks) zavodida ishlab chiqarilgan. Og'irliki ikki tonna-yu, yetti yuz kilogramm bo'lib, 500 ta chirog'i bilan muzeyni charag'on etib turadi.

Muzeyni aylanar ekanman, uni O'zbekiston durdonasi degim keldi. Zamonamiz tinch, hayotimiz farovon ekanligidan Temur bobomiz, ajdodlarimiz ruhi shod bo'layotgandek tuyuldi menga...

Anorxon IMOMALIYEVA,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti talabasi



ishni nimadan boshlashni bilmayotgan bo'lishingiz mumkin. Sizlarga Umidjon ismli yigit haqida hikoya qilib bermoqchiman. Xulosa chiqarish esa hukmingizga havola.

Umidjon ancha yosh paytida otasidan ayrilib, farrosh bo'lib ishlaydigan onasining og'irini yengil qilishga urindi. Darsdan bo'sh paytlari esa otasi mehnat qilgan zavodda o'ziga mos yumushlarni bajarib, biroz bo'lsada ro'zg'orni butlash payida bo'ldi. Eng asosiysi, ota vasiyatiga amal qilib, maktabda puxta bilim oldi...

Bu gaplar hali yurtimiz Istiqolga erishmagan davrlarning gapi. Umidjonning maktabni bitirishi Istiqol kunlariga to'g'ri keldi. Ko'plab iqtidorli bolalar

qatori u ham davlatimiz tomonidan xorijga o'qishga yuborildi. To'rt yil davomida Londondagi nufuzli o'quv yurtlaridan birida tahsil oldi. Peshqadam talaba sifatida o'sha yerda qolib, ishlash taklifini rad etib, Vatanga qaytdi.

Umidjon olgan bilimlariga tayanib tuzgan biznes rejasi asosida ish boshlash uchun kerakli moliyaviy yordamni olishga erishdi. Shu tariqa oyna ishlab chiqaruvchi «Yuksalish» kichik korxonasi tashkil qilindi. Avvaliga biroz qiyinchiliklar bo'ldi. Mustahkam irodali Umidjon esa tushkunlikka tushmay, faqat olg'a intildi. Istiqolga erishgan davlatimiz kabi «Yuksalish» ham yildan-yilga yuksalib boraverdi. Kichik korxonaga bir necha

turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik kompaniyaga aylandi.

Sizga hikoya qilganim Umidjon rejissyor Shamsiddin Isomov g'oyasi, taniqli dramaturg Nurullo Abbosxon ssenariysi asosida suratga olingan «Umid...» filmning bosh qahramoni. Yaqinda filmning premyerasi bo'lib o'tdi. Muhtasham zalga yig'ilgan muxlislar tomosha davomida bir necha bor hayajondan qarsak chalib yuborib, uning ijodkorlariga o'z ehtiromlarini namoyish etdilar.

Filmni tomosha qilar ekanman, sal narida o'tirgan onaxonning bot-bot ko'zlarini artayotganlari diqqatimni tortdi. Men bu ko'zyoshlarni bugungi kunimiz shukronasi deb bildim. Bu filmni hayajon

bilan tomosha qildim. Yurtimizda intiluvchan yoshlar uchun barcha imkoniyatlar muhayyo. Sizning qo'lingizdan ham katta ishlar keladi. Umid kabi aniq maqsad yo'lida sabot bilan olg'a intilsangiz, bas.

Yana bir gap yodimdan chiqay debdi: tomosha tugagach zaldan chiqar ekanman, nihoyatda ta'sirlanib ketgan bir otaxonning titroq ovoza: «Yaxshi kino ham olsa bo'larkan-ku», – degan gapi qulog'imga chalindi. Siz ham «Umid...»ni ko'rishga shoshiling. Olgan taassurotlaringiz bilan birgalikda gurgunglashamiz.

Yusuf ABDULLAYEV

«Onajonim – tabiat» insholar tanloviga

Qadrli tabiat shaydolari, so'zimiz avvalida «Onajonim tabiat» insholar tanlovidagi faol ishtirokingiz uchun sizga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz. Yana shuni mamnuniyat bilan e'tirof etishni istardikki, bu yilgi tanlovga yo'llayotgan maktublaringiz avvalgilardan-da mukammalligi, mazmundorligi, ekologik muammolarni sanab o'tish bilangina kifoyalanmay, ularning sabab va yechimlari haqida ham asosli fikr bildirayotganingiz bizni mamnun etyapti. Shuningdek, tanlovimizga ustozlarning ham bee'tibor emasliklari yanada quvonarli holdir.

Quyida tanlovga kelgan maktublardan ayrimlarini qisqartirilgan holda e'tiboringizga havola qilamiz.



MENING TUHFAM

Xalqimizning sevimli shoirasi Zulfiya: «Bog'lar qiyg'os gullola» nomli she'rida «Atigi bir kaft bog' ham bir Vatan» deb yozganida nechog'li haq edi. Shunday ekan, yurtimizni bog'-u rog'larga aylantiraylik, toki bizdan obod Vatan qolsin.

Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas. Matabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zolarining bugungi kundagi shioriga aylangan va biz unga amal

qilib, tengdoshlarimizga ibrat bo'lishga intilyapmiz.

Maktabimizning juda katta bog'i bor. Biz har haftaning shanba kunlari u yerda hasharlar uyushtiramiz. Hozirda «Istiqlolning yigirma yilligiga yigirma tup ko'chat mening tuhfam» nomli tadbir o'tkazypmiz.

Safimizga siz ham qo'shiling, aziz tengdoshlarim!

Mohinur SHARIPOVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on
shahridagi 11-ixtisoslashgan maktabning
6-«G» sinf o'quvchisi

Qushlarning qanoti qayrilmasin!

Men Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining til adabiyot fani o'qituvchisiman. «Tong yulduzi»ning har bir sonini o'quvchilarim bilan birgalikda o'qib boramiz. Yaqinda gazetada «Onajonim tabiat» insholar tanlovi e'lon qilangani haqida o'qib qoldik. 7-«A» sinf o'quvchisi Sevara Ibodullayeva hamda 8-«D» sinf o'quvchisi Umida Hamdamovalar ana shu tanlovida qatnashish istagini bildirdilar.

O'quvchilarimning bu qaroridan ruhlanib, ularni viloyatimiz hududidagi «Jayron» ekologik markaziga sayohatga olib bordim. Markaz xodimlari bizni iliq qarshi olishdi va u yerdagi sharoitlar bilan tanishtirishdi. Shogirdlarimning sayohat taassurotlari asosida yozgan insholari hamda tayyorlagan fotoalbomlarini tanlovga yo'llashga ahd qildik.

Feruza BO'RONOVA

MEHRIMIZ ORTDI

1992-yilda BMTning Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan majlisida atrof-muhit va biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiya imzolandi. 1993-yilga kelib, 168 ta davlat uning ishtirokchisi bo'ldi. 1995-yilda O'zbekiston ham ushbu Konvensiyaga qo'shildi. Shunga ko'ra, atrof-muhitni asrab-avaylash, yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot turlarini saqlab qolish, ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar tashkil qilinyapti. Ulardan biri bizning Buxoro viloyatimizda tashkil etilgan.



Yaqinda ustozimiz Feruza Bo'ronova boshchiligida jayronlarni ko'paytirishga mo'ljallangan ana shu qo'riqxonaga sayohatga bordik. Qo'riqxonaga noziri Farrux Fayziyev bizga hamrohlik qilib, kurka, burgut, tog' echkisi, tog' qo'chqori, jayron kabi nomlari «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar bilan tanishtirdilar.



Sayohat tufayli ona tabiatga bo'lgan mehrimiz yanada ortdi.

Sevara IBODULLAYEVA,
7-«A» sinf o'quvchisi

MO'JIZANING O'ZGINASI

Tabiat... Uning har bir niholi, unib-o'sgan maysalari mo'jizadir. Inson ham tabiatning bir bo'lagi, mo'jizasi hisoblanadi. Shunday ekan, uni asrashimiz, sof, beg'ubor holda saqlab, kelajak avlodlarga




ham yetkazishimiz lozim. Zimmamizdagi bu mas'uliyatni maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi mashg'ulotlarida yanada chuqurroq anglab yetyapmiz.

Umida HAMDAMOVA,
8-«D» sinf o'quvchisi



Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Shodiyabegim Sharofiy o'tgan yili «Onajonim tabiat» insholar tanlovida qatnashib, faxrli ikkinchi o'rinni egallagandi.

Tumandagi «O'lakshunoslik», «Bioekosan», maktabi qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagiga a'zo bo'lgan bu faol muxbirimiz bu yil ham kattagina xatjildda o'zi yashab turgan Forish tumanining tabiati, noyob o'simliklari, hayvonlari, qushlari haqida batafsil insho yozib yuboribdi. Quyida e'tiboringizga havola qilinayotgan Shodiyabegimning qushlar haqidagi inshosiga maktabdoshi – 6-«A» sinf o'quvchisi Ramazon Qo'rg'onov rasmlar chizib yuboribdi.



Nurota tog'lari va Qizilqum cho'lining atroflarida yirtqich qushlarning 32 turi uchraydi. Ulardan 13 turi in quradi, qolgani esa uchib o'tadi yoki qishlovga qoladi.

Eng yirtqich qushlar boltayutar, oq boshli qumov va tasqara o'laksalar bilan oziqlanadi. Shu bilan birga ular tabiatga, qishloq xo'jaligi va chorvachilikka katta foyda keltiradi. Shuning uchun ularni sanitar qushlar deb atashadi.

Boltayutar va oq boshli qumov qoyalarga, chiqish qiyin bo'lgan joylarga, tasqara esa yovvoyi bodom butalariga in quradi. Shuning uchun inson qarshisida bu qush juda himoyasiz. Ko'pincha mahalliy «mergan» bolalardan aziyat chekadi. Qachonlardir

ko'p sonli bo'lgan Tasqara qushining nomi bugun xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan. Keyingi paytlarda Hindiston yarim orolida ishlatilgan veterinariya dorisi «diklofenak»ni ishlatish natijasida millionlab yirtqich qushlar nobud bo'ldi. O'laksalar bilan oziqlanadigan oq boshli qumovlarning soni 95 foizga kamaygan, shu sababli qolib ketayotgan o'laksalar ichimlik suviga tushib, mahalliy aholi o'rtasida turli xavfli kasalliklar tarqalishiga sabab bo'lyapti.

Miqqi, jo'rchi, qirg'iy, jig'atoy, sariq sor bizning hududga xos qushlardir. Nurota tog'larida O'zbe-

kistonning «Qizil kitob»iga kiritilgan ilon burgut, burgut, kichik burgut kabi qushlar yashaydi. Ayrim hollarda migritasiya (uchib o'tish) va qishlov davrida itolg'i, qironqira, cho'l burguti, dasht katta burguti, oq dumli suvburgut, lochin kabi qushlarni ko'rish mumkin.

Yirtqich qushlarni tutqunlikda bog'ish juda ko'p mablag' talab qiladi. Afsuski, ko'pincha bunday qushlarni ayrim «tabiat shaydo»larining uylarida ham ko'rishimiz mumkin. Natijada qushlar kasallanadi, nobud bo'ladi. Baland-baland cho'qqilar, bepoyon kengliklar uzra parvoz qilayotgan qushlar bilan qafasda qanotlari bukilib, diqqinapas bo'lib yotgan qushlarni o'zingiz bir solishtirib ko'ring-a!

SARV –

UMRBOQIYLIK RAMZI

Doimiy yashil holda o'suvchi sarv daraxti ulug'vorligi, ko'p yil umr ko'rishi va o'zidan xushbo'y ifor taratishi bilan insonlar tomonidan juda qadrlanadi.

Jizzax viloyatining Nurota tog'li hududida joylashgan «Nurota qo'riqxonasi»sidagi Mujurum soy qirg'og'ida hozirda yagona bo'lgan sarv daraxti qad ko'tarib turibdi. Uning balandligi 30 metrdan ziyod bo'lib, aylanasini 2 metrli uchta tanasi bitta ildizdan oziqlanadi.

Sarv daraxti yurtimizga qay davrda, qanday tarzda kelib qolganidan qat'iy nazar, biz uni avaylab-asrashimiz, kelajak avlodlarga ham yetkazishimiz lozim.



Har qanday jamiyatning barkamol rivoji uchun u egallab turgan hududdagi mavjud hayotiy omillarning barchasi, ayniqsa, tabiiy muhitlar yuqori darajada ekologik sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmog'i darkor. Shuningdek, har bir jamiyat a'zosi ekologik ong va tafakkur sohibi bo'lishi, yashash joyu-makonini nihoyatda sevishi va e'zozlashi lozim.

Bunday fazilatlar esa maktablar qoshidagi yosh tabiatshunoslar to'garaklarida bolalikdanoq shakllantirib borilsa, ayni muddao bo'lardi.

Shunday euzu maqsadda maktabimiz qoshida 2008-yili «O'lakshunoslik» muzeyi tashkil etildi. To'garak a'zolari 2009-yili o'tkazilgan «Ekologiyani asrang!» tanlovining

«GULISTON»IMIZ GULZOR BO'LSIN

tuman, shahar va respublika bosqichida 1-o'rinni egalladilar. O'tgan yili esa to'garak rahbari boshchiligida «Oqava suvlardan unumli foydalanish» ekologik loyihasini ishlab chiqdilar. Mazkur loyiha respublika ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi. To'garak a'zolarining bu yilgi o'quv rejalariga ekologik tahlillar, ekologik ekspeditsiyalar o'tkazish, o'lkamizning ekologik muammolari yechimini ishlab chiqish kabi yumushlar kiritilgan.

Axlatlar va maishiy chiqindilar juda tez to'planadi, lekin juda sekin yo'qoladi. Yirik shaharlar atrofida chiqindilar tashlash uchun ajratilgan joy ham qolmadi, hisobi. Chiqindilar yoqib yuborilsa, unda biz nafas olayotgan havo zaharlanadi. Shuning uchun menda bir taklif bor: chiqindi tashlayotganda qog'oz va kartonlar alohida, shisha, yelim idishlar alohida idishlarga solinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.



Biz poytaxtimizdagi «Guliston» mahallasida yashaymiz. Ayrim tengdoshlarimiz chiqindilarni maxsus idishlarga emas, uning atroflariga tashlab ketayotganlariga ko'p bora guvoh bo'laman. Shunda ularga qarata: «Tabiatni asrashga hech bo'lmasa uni ifloslantirmaslik orqali hissa qo'shing» degim keladi. Shuningdek, ekologiyaga oid adabiyotlar, qo'llanmalar, ayniqsa, bolalar uchun rasmlilik ekologik kitobchalar ko'proq chop etilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Risolatxon IBRAGIMOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
296-umumta'lim maktabining
7-«V» sinf o'quvchisi



Murtazo bobo abirasi
Latifaxon bilan

ULKAN BAXT

Yoshlikdan yaxshilik qilishga,
Intilganman, shudir katta baxt.
Ota-onam duosin olib,
Oshiqqanman, shudir katta baxt.

Bilim oldim, hunar o'rgandim,
Bilag'onlik, bo'ldi hamrohim.
Ustozlarni ulug' yo'lidan,
Do'st orttirib yugurdim doim.

Buyurganin bajardim har vaqt,
To'g'ri yo'l shu, erur yuksak baxt
Qaytarganda izimga qaytdim,
Murod hosil, shudir katta baxt.

Aql-Hasan, odobim-Husan,
Odamiylik yo'lida nishon.
El koriga agar yarasam,
Mening ulkan baxtinga ishon.

Mirza Anvar KARIMOV

YAXSHILAR ORASIDA

Aziz bolajonlar, gazetamizning har bir sonini intiqlik bilan kutishingizni, sahifalarini maroq bilan o'qishingizni yaxshi bilamiz. Uning oxirgi sahifasidagi «Tahrir hay'ati» ro'yxatida ustozimiz Murtazo Sultonovning ismi-sha'rifiga ham ko'zingiz tushgandir. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirining Bosh maslahatchisi, Xalq ta'limi va Oliy ta'lim a'lochisi, tanig'li olim va jurnalist Murtazo akani «gazetamizning katta do'sti» desak, mubolag'a bo'lmaydi. Men, Murtazo Sultonovman, deya har gal tahririyatimizga kirib kelganlarida, xonada ko'tarinki bir kayfiyat hukmron bo'ladi. Har birimiz bilan alohida salomlashib, xuddi o'g'il-qizlaridek gaplashadilar. Kamtarligi, samimiyligi bilan barchada yaxshi taassurot qoldiradigan ustozimiz insonlarga yaxshilik qilishdan zavqlanib yashaydilar.

O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizom bobongiz u kishiga bag'ishlab yozgan to'yxatida quyidagi misralar bor:

Sizday saxiy erur bu zamin,
Shul sababdan gurkirar bog'lar.
Har so'zingiz berar bol ta'min,
Davrangizda yaxshi o'rtoqlar...

Yaqinda tabarruk 74 yoshini qarshilaydigan Murtazo bobomizni siz aziz muxlislarimiz nomidan muborakkob etamiz va yana uzoq yillar yaxshi odamlar orasida yurishlarini tilab qolamiz.

FARISHTAM

Onajonim, menga boringiz berib,
Farzandim, dilbandim deya yonasiz.
Yutuqlarim ko'rib, ko'nglingiz o'sib.
Faxr, iftixordan dilxush qonasiz.

Bolalikning olis ko'chalarida
Beg'ubor havaalar yonib turibdi.
Ko'nglimni yoritgan tiniq bir chehra –
Yuzingizdan yog'du olib yuribdi.

Tilab malikalar yetmagan baxtni,
Bahor chechaklarin quchog'idasisiz.
Munis va mo'tabar mehribonginam,
Hamisha qalbinimga ardog'idasisiz.

Xumoyra ESHMO'MINOVA,
Qarshi Davlat universiteti qoshidagi
Akademik litsey o'quvchisi

TABIAT

Maftuningman diyorum,
Sen mening iftixorim,
Go'zalim, jonajonim,
Onajonim tabiat.

O'ng-so'limda lolalar,
Kamalak shalolalar,
Shod ulg'ayar bolalar,
Onajonim tabiat.

Dilnoza RAJABOVA,
Navoiy Texnika iqtisodiyot
kasb-hunar kolleji talabasi

QACHON KATTA BO'LAMAN?

Men hali yosh bolaman,
Orzularga to'laman,
Xayol surib qolaman –
Qachon katta bo'laman?

Yayrab-yayrab o'ynayman,
Sho'xliklardan to'ymayman,
Oyimlardan so'rayman –
Qachon katta bo'laman?

Maktab borish orzuim,
O'qish xayolim, o'yim,
O'saqolsaydi bo'yim,
Qachon katta bo'laman?

Aziza NURMETOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a
tumanidagi Bo'ston ijtimoiy-iqtisodiy
kasb-hunar kolleji talabasi

QIZ TALASHGAN O'SMIRLAR



(Boshi o'tgan sonlarda)

O'zi xiylagina hazilkash emasmi, hazilnamo qilib «men sochidan qatiq hidi kelib turadigan qishloq qizlarini emas, sochini kalta kestirgan, butun borlig'idan atir, upa hidi ufurib turadigan shahar qizlariga uylanaman», deb xoxolab kularmish. Uning kulgusi shunday samimiy, shunday beg'ubor va goho shunday qattiq ham bo'larkanki, astoydil kulsa, daraxtlarga qo'ngan qushlar gurullab uchib ketarmish.

Eski, shalog'i chiqqan, nechanchi yilda dunyoga kelganligini ham bilib bo'lmaydigan «Jiguli» rusumli ulovda ikki o'smir shahardan qaytyapti. Mashinaning yukxonasi, orqa o'rindig'i bir litrlik, ikki litrlik shisha bankalarga to'la, shaqir-shuqur qilib «ashula» aytib kelayapti. Ashulaga yukxonadagi oltita bo'sh tog'ora ham jo'r bo'lgandek g'alati-g'alati ovozlari chiqarib boryapti.

tutun qaytarmay yuraveradi. Eng muhimi bu emas, muhimi shuki yo'l harakati boshqaruvi noziri ola tayog'ini qo'lga olib orqasidan quvsa ham, baribir yetolmaydi. Bechora nozir tayoqchasini o'q'talib, «shoshmay tur, seni baribir qo'lga tushiraman», deb qolib ketaveradi.

Ana shu antiqa «Jiguli»da ikki kishi kelyapti-yu ruldagisi hozirgina, besh ta qiz unga ishqiboz bo'lib qolgan emish, deb ta'riflaganimiz shu yil bahorda yosh fermerlar ko'rgazmasida ishtirok etib, «Eng yosh fermer» deb diplom olgan Yo'ldoshxon bo'ladi. Uning yonginasida esa fermaning hisobchisi, barcha ishlar bo'yicha ana shu Yo'ldoshxonning yordamchisi bo'lmish Zulxumor kelyapti. Ikkovlari ham o'z xayollari bilan band. Olti tog'orada anjir olib borishgan edi. Anjirlar ko'z yumib ochguncha pul bo'ldi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Zulxumor, ehtimol, shu pullarni hisoblab borayotgandir. Ehtimol, anjirimizning shig'il pishgan hosilini endi boshqa bozorlarga chiqarsak bo'larmikan, deb o'ylab borayotgandir. Zulxumor, ehtimol, hammasi bo'lib besh qiz-u besh o'smirdan iborat ferdadagi ishlarning ertangi rejasini tuzib borayotgandir. Xullas, bu qiz boshqalarga qaraganda ferdaga qattiq berilgani uchun Yo'ldoshxon o'ziga o'rinbosar qilib olgan. Ehtimol, qishloqdagi boshqa fermer yigitchalar unga ko'z olaytirmasin, yaqinrog'imda bo'lsin, deb shu xayolga borgandir. Keyin Zulxumorning to'lib-toshib borayotgan husni jamoli vaqti-vaqti bilan bu yigitchani o'ziga tortar, ba'zan mast ham qilib qo'yardi. Ehtimol, ana shu quvonchli daqiqalar hamisha menga nasib bo'lib tursin, deb bu qizni yoniga olgandilar. Qizning to'lishib borayotgan husni latofati qishloqdagi o'zga yigitchalarning ham e'tiborini tortgan bo'lishi kerak. Ehtimol, Yo'ldoshxon, bu go'zal qiz men bilan birga, deb maqtanib yurish uchun ham unga katta-katta ishonch bildirayotgandir. Ehtimol, Zulxumor tumanga mashhur bo'lgan qattiqqo'l prokurorning qizi, bir kunmas bir kun unga ishim ham tushib qolar, deb o'ylagandir. Xullas, bu o'smir yigitchaning ham, bu o'smir qizning ham o'ylaganlari ko'p. Nima bo'lganda ham ikkovlari hozir shahardan shirin-shirin xayollarga berilib qaytishyapti. Anjirlari yaxshigina pul bo'ldi, shuning gashtini surib kelishyapti.

(Davomi bor)



Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida, ma'naviy-axloqiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash, ularda kitobxonlikni shakllantirish maqsadida maktablarda «Maktab-kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari» xayriya tadbiri o'tkazilib kelinmoqda. Shu mavzuda Bektemir tumanidagi 292-maktabda bo'lib o'tgan tadbirda XTB uslubchisi Galina Yusupova, mahalla oqsoqoli Zafar Siddiqov hamda «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari ishtirok etishdi.



KUTUBXONA YANA BOYIDI

Doira sadolari ostida folklor guruhi o'g'il-qizlari «Onajon», «Yallama yorim» qo'shiqlari bilan tadbirni ochib berganlaridan so'ng, ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sayyora Polvonova mehmonlarni o'quvchilarga tanishtirdi. Taniqli shoir Axtamqul Karim o'z ijodidan namunalar o'qidi. She'rlardan ilhomlangan o'quvchilar uni savollarga «ko'mib tashladilar». Ijodkor o'quvchilar o'zlari yozgan she'rlaridan o'qidilar. 9-«A» sinf qizlari g'azalxonlik qilishdi. 9-«B» sinf qizlari esa go'zal raqslar ijro etib, kechaga o'zgacha fayz bag'ishlashdi.

Kecha so'ngida mehmonlar, shuningdek, maktabning 6 – 9-sinf o'quvchilari kutubxonaga turli mavzudagi kitoblarni taqdim etishdi.

Gulyuz BAHODIR qizi
Zuhra va Zubayda olgan suratlar



YUKSAK VAZIFA

Hamza tumanidagi 69-maktabda o'tkazilgan «Milliy urf-odatlar» ko'rik-tanlovida ham 5-sinfdan 9-sinfgacha bo'lgan o'quvchilar o'zbekona an'analarni sahna ko'rinishlari orqali namoyish etishdi. Shu bilan bir qatorda ular «Kelin salom», «Beshik to'yi», «Oq terakmi, ko'k terak...» kabi milliy o'yinlarimizni ko'rsatib berishdi.

Bu kabi tanlovlar o'quvchi qalbida milliylik ruhining shakllanishiga turki bo'ladi, deb o'ylayman.

Iroda MAHKAMOVA,
O'zDJTU qoshidagi
2-sonli akademik litsey
o'quvchisi

SHUNDAY YASHAYLIK!

Men havas bilan yashayman. Kinga, nimaga havas qilasan, deysizmi? Go'zal yurtimga, a'lochi tengdoshlarimga havas qilaman. Jonajon O'zbekistonimiz qisqa davrda katta yutuqlarga erishdi, bundan quvonaman. Tengdoshlarim-chi? Ular orasida davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'lganlar juda ko'p. Mehning qadr topayotgan yurtini sevmay bo'ladimi?!

Yigirma yoshli O'zbekiston, yanada yuksal, sharafla burkan!

Dilnoza TURSUNBOYEVA,
Toshkent shahri, Olmazor tumanidagi
219-maktabning 8-sinf o'quvchisi



ADABIYOT BILAN HAMNAFAS

Poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan 24-maktabda taniqli yozuvchi Shoyim Bo'tayev bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir qizg'in savol-javoblar, badiiy sahnalar asosida qiziqarli o'tdi. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarning adabiyot haqidagi bilimlarini kengaytirib, dunyoqarashini shakllantirishiga ishonamiz.

MANZURA

QISHLOQDAGI DO'STLARIM

(Hikoya)



Shokirni doskaga chiqarib, undan tanaffusga kim bilan chiqqanini surishtirdi. Shokir, men Nodir bilan chiqib ketgandim, dedi. Ustoz: «O'sha paytda kitobing portfelingdami? – deb so'radi. Shokir: «Ha, ustoz, o'shanda kitob portfelimda edi», deb javob berdi.

Biz shaharda yashaymiz, bobomlar qishloqda. Har ta'tilda qishloqqa boramiz. U yerda bizning tengdoshlarimiz ko'p. Qishloq bolalari shaharda yo'q o'yinlar o'ynashadi: bu o'yinlarni bobolarimiz ham o'ynashgan, deyshadi. Menga ayniqsa, chillak o'yini yoqadi.

Qishloq havosi toza. Daraxtlar, gulu-giyohlar ko'p. Tabiat har faslda yal-yal tovlanadi. Shundanmi, u yoqqa tez-tez borgim keladi.

O'sha qishloqda mening ikki do'stim bor. Biri Shokir, ikkinchisi Nodir. Ularning qalin do'stligini ko'rolmagan sinfdoshi Botir o'ziga-o'zi: «Bu ikkisini urushtirib qo'yaman», deb ahd qilgandi.

Bir kuni Shokir va Nodir tanaffusga chiqib ketganda, Botir o'z rejasini amalga oshirdi:

Shokirning portfelida qimmatbaho kitob bor edi. Botir o'sha kitobni olib, Nodirning portfeliga solib qo'ydi. Shokir kelib portfelini ochib qarasa, kitob yo'q. Keyin ustoziga «Mening portfelimda kitob bor edi, u yo'qolib qolibdi», dedi.

Dars tugagach, ustoz hamma bolalarni olib qoldi.

Ustoz: «Ha, mayli, bo'lmasa hamma portfelini stolning ustiga qo'ysin, bir boshdan tekshirib chiqamiz», dedi. Ustoz Botirga yaqinlashganda uning qo'llari qaltirab yuzi qizardi. Sabri chidamay, titrab-qaqshab:

– Kitobni men yashirgandim, – deya Nodirning portfelidan Shokirning kitobini olib, partaning ustiga qo'ydi. Hamma hayron qoldi.

Botirning boshi egilib, barcha sinfdoshlari va ustozidan kechirim so'radi.

– Endi hech qachon yomonlik qilmaslikka so'z beraman, – dedi ovozi o'zgarib. U Shokir bilan Nodirning yoniga kelib:

– Men sizlar bilan do'st bo'lmoqchiman, – dedi iltijoli ohangda.

Bolalar rozi bo'lishdi.

Hozir ularning do'stligiga hammaning havasi keladi.

Sodiq TO'RAYEV,
Sergeli tumanidagi 300-maktab o'quvchisi



NAVBAT FESTIVALGA



Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 227-maktabda ham estetik fanlar oyligining ochilishi tantanali ravishda tashkil qilindi. Uslubiy birlashma raisi Hojiya Salimova birlashma a'zolari Noila Ortigova, Adiba Mirzaboyeva va Dildora Umaraliyeva fan oyligi rejasini ishlab chiqishdi. Unda turli tadbirlar, ochiq daralar, muzeylarga sayohat, davra suhbatlarini o'tkazish rejalashtirildi.



Oylikni yanada qiziqarli o'tkazish uchun referatlar, bukletlar, albomlar ko'rik-tanlovi uyushtirildi, qo'l mehnati bo'yicha ijodkor o'quvchilar bajargan ishlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. Rasm darsi bo'yicha 1-7-sinf o'quvchilari o'rtasida «Dunyo bolalar tasavvurida» ko'rgazmasi tashkil qilindi. Bundan tashqari 1-4-sinf o'quvchilari o'rtasida «Ertaklar yaxshilikka yetaklar» mavzusi bo'yicha, 5-7-sinf o'quvchilari o'rtasida «Salomatlik kuni» munosabati bilan rasmlar tanlovi o'tkazilib, unda barcha sinf o'quvchilari ijodiy ishlari bilan ishtirok etdilar.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yili munosabati bilan maktabda «Kichik biznes malikasi» ko'rik-tanlovi tashkil qilindi. Tad-

birda asosan 3-sinf qizlari qatnashib, «Eng tadbirkor qiz», «Eng zehni qiz», «Eng chevar qiz», «Eng chaqqon qiz», «Eng didli qiz» nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Fan oyligi yakunida maktabimizda «Fan oyligi festivali»ni o'tkazish rejalashtirildi.

Adiba MIRZABOYEVA,
Klara AZIMOVA,
mehnat ta'limi fani o'qituvchisi



«CHASHMA»NING ILK QADAMI

Qadri bolajonlar! Sizlarga Zangiota tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli O'quvchilar ijodiyot markazining drama to'garagida, «Chashma» nomli yangi guruh tashkil etilgani haqida xabar bermoqchimiz.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida tashkil qilingan guruhga tuman maktablaridan iqtidorli, iste'dodli san'atsevar o'quvchilar test sinovlari va ijodiy shartlar asosida qabul qilindi. Yosh shoira Zumrad Abduqahhor qizi boshchilik qilayotgan guruhda 20 nafar iqtidorli o'quvchiga notiqlik san'ati, sharqona odob-axloq, aktyorlik mahoratining sirlari o'rgatilmoqda.



M.UBAYDULLAYEVA

O'ZINGIZGA BAHO BERING

O'quvchining sinfdoshlari orasidagi hurmati tashqi ko'rinishi bilan emas, balki aql-zakovati, bilimi va o'zini tuta bilishi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, o'zingizga baho bering.

1. Sinfdoshlardan necha nafari bilan do'stsiz?
Bütasi bilan – 0 ball, undan ko'p bo'lsa – 3 ball.

2. Har kuni nechta a'lo baho olasiz?

Olmayman – 0 ball, ikki-uchtadan ko'p bo'lsa – 3 ball.

3. Qizlarni hurmat qilaysizmi?

Ikki kildanaman – 0, ha – 3 ball.

4. Badiiy kitob o'qiysizmi? Yo'q – 0 ball, o'qiyman – 3 ball.

5. Sinfdoshlaringizni tug'ilgan kunlari bilan tabriklaysizmi?

Gohi – 0, doimo – 3 ball.

6. O'quv yili davomida nechta badiiy kitob o'qidingiz?

O'qimadim – 0 ball, yigirmadan ziyod – 3 ball.

Ballarni hisoblab chiqing.

18 ball to'plasangiz, demak, Siz yaxshi o'quvchisiz!

Javoblaringizni e'lon qilamiz.

BOLALIK

Bolalik...
Qo'lmdagi qo'g'irchoq,
Tol cho'pidan zo'r toychoq.
Suvga oqqan kulchalar,
Qumdan saroy, uy-chalar.
Buvim aytgan «Yoriltosh»,
Loydan pishgan shirin osh...

Bolalik...
Farishtadek bir malak,
Uchib yurgan kapalak.
Shodlik, quvonchning uyi,
Qo'g'irchoqlarning to'yi.
Ana, belanchakka boq,
Go'dakka alla aytar.
«Kelin» bo'lgan qizaloq.

Bolalik...
Nafis, beg'ubor lola,
Xo'rozqand yeyman deya
Yo'lda yig'lagan bola.


Bolalik...
Ko'z ochib, yumguncha vaqt
Boshingga qo'nib turgan,
Humo qushi yoxud baxt.



Yulduz RIZAYEVA,
Navoiy texnika iqtisodiyot
kolleji talabasi

«O'zbekiston shaharlari» - to'qimadagi jumboq

To'qimadagi kataklarda Vatanimizdagi o'n ta shaharning nomi yashiringan. Berilgan harflardan foydalanib, shaharlar nomini eri va bo'yi yo'nalishida toping-chi?
Tuzovchi:
F. ORTPOV



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ittifoqi harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 72058
Buyurtma N: J 1664